



OLIY TA'LIM TIZIMIDA TABIIY FANLARNI O'QITISH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.

Zulxumor Xotamova

Andijon Davlat Universiteti

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish

ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya. Mamlakatimizda tabiiy fanlarni xususan, biologiya kimyo va ekologiya fanlarini yuqori darajada rivojlantirish eng ustivor vazifalardandir. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tayanchi ilim-fan va texnologiyalar taraqqiyoti uchun zamin yaratish va albatta bu borada erishilgan yutuqlarni amaliyatga joriy etishdir.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lismida tabiiy fanlarni rivojlantirish, ta'lismida xorijiy tajribalar, O'zbekiston Respublikasi prezidentining Oliy ta'limni rivojlantirish to'g'risidagi qarorlari, sohadagi taraqiyyot, malakali kadrlar tayyorlash, tabiiy fanlarni o'qitishdagi islohotlar.

Абстрактный. Высокое развитие естественных наук, особенно биологии, химии и экологии, является одной из важнейших задач нашей страны. Основная поддержка социально-экономического развития страны заключается в создании базы для развития науки и техники и, конечно же, в реализации достижений в этом направлении.

Ключевые слова: Развитие естественных наук в системе высшего образования, зарубежный опыт в системе образования, решения Президента Республики Узбекистан по развитию высшего образования, развитию сферы, подготовке квалифицированных кадров, реформированию преподавания естественных наук

Abstract. High development of natural sciences, particularly biology, chemistry and ecology, is one of the most important tasks in our country. The main support of the socio-economic development of the country is to create a basis for the development of science and technology and, of course, to implement the achievements in this regard.



Key words: Development of natural sciences in the higher education system, foreign experiences in the education system, decisions of the President of the Republic of Uzbekistan on the development of higher education, development in the field, training of qualified personnel, reforms in the teaching of natural sciences

KIRISH.

Dunyo yaralibdiki zamonamizni ta'lim, ilm-fan taraqiyotisiz tasvvur etish qiyin. Deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida ta'limga va uni rivojlantirishga kata ahamiyat beriladi. Negaki, mamlaktaning taraqiyoti aynan ushbu sohada erishilgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu mamlakatlar qatorida O'zbekistonning ham ta'lim tizimida xususan, Oliy ta'lim tizimida yangidan-yangi islohotlar amalga oshirilmoqda.

YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY FANLARNI RIVOJLANTIRISH.

Yangi O'zbekistonda tabiiy fanalar tizmini yaxshilash va rivojlantirish maqadida ko'lab qarorlar qabul qilingan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda PF-58-47-son farmoni bilan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" da oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari sifatida quyidagilar belgilangan:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'nnaviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

Sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash;

Ushbu maqsadlar barcha fanlar singari tabiiy fanlar sohasida ham qator masalalarni kun tartibiga qo'yadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aynan Oliy ta'limganing tabiiy fanlarni rivojlantirishga mo'ljallangan qarorlaroda esa yaqqol o'z aksini topadi. 2020-yil 12-avgustda PQ-4805-sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzlucksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorlligini oshirish chora-tadbirlari "to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash" to'g'risida qarorlar o'z ijrosini ta'minlab kelmoqda.

Shungga binoan O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldag'i Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4623-son qarori bilan mamlakatimizdagi 5 ta Oliy ta'lim muassasi - Andijon Davlat Universiteti, Samarqand Davlat Universiteti, Qarshi Davlat Universiteti, Buxoro Davlat Universiteti, Termiz Davlat Universitetlari huzurida pedagogika institutlari tashkil etildi, jumladan Andijon pedagogika instituti ham tashkil etildi.

Hozirgi kunda Andijon davlat universiteti tabiiy fanlar yo'nalishida quyidagi yo'nalishlar mavjud;

- Biologiya – 605 10 100
- Kimyo -
- Ekologiya – 607 104 00
- Geografiya
- Oziq-ovqat – 607 20 100

Magistratura biologiya – 705 10 101

Mazkur malakali kadrlar yangi O'zbekiston ta'lim tizimida munosib o'ringga ega bo'lishida Universitetimiz jamoasi beminnat xizmat qilmoqda.

Ta'lim tizimida xorijiy tajribalarning kirib kelishi, xalqaro baholash (PIZA, TIMS, PIRL, TALIS) va STEAM dasturlarini qo'llash ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ushbu dasturlar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikirlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishga turki berishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari Talabalarining qiziqishlaridan kelib chiqib, sinfdan tashqarida amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.



Shungga mos ravishda universitetimizda xorijiy tajribalar asosida ta'lism berish va 1+1,2+2 asosida xalqaro universitetlar bilan hamkorlikaloqlari yo'lga qo'yilgan.

Biz talabalar sog'lom hamda go'zal turmish kechirish,egallagan kasbimiz bo'yicha doimiy ish o'rnimizga ega bo'lishimiz ,mas'uliyatni o'z zimmamizga olib,qisqacha aytganda har bir talabaning komillkka erishishi uchun harakat qilinmoqda va bu jarayonda yanggi O'zbekistonda eng sifatli ta'lism olishni eng asosiy shart sifatida ko'rish lozim.

Tabiiy fanlar tizmining ta'lism yondashuvlariga yangiliklar kiritish bu o'sha yo'naliishlarning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi. Aynan ushbu yo'naliishlarni rivojlantirishda nazariyotda o'rgangan har bir bilimlarini amaliyotda sinab ko'rishi, har bir o'rganayotganlarini turli tillarda ommaga tadbiq etishi eng muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12- avgustdag'i "Kimyo va biologiya yo'naliishlarida uzluksiz ta'lism sifatini va ilm-fan natijadorligni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-sonli Qarori.

2.Sh.Otajonov,Sh.Ergasheva. Ilmiyatdqiqtanlov mavzulari va ilmiy loyihalar qanday shakllantiriladi? T:"innavatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi"2020,86b.

3.O'zbekiston Respublika Prezidentining 2020 yil 27 fevraldag'i Pedagogik ta'lism soxasini yanada rivojlanish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4623-sonly qarori.

4. Указ Президента Республики Узбекистан “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы” от 28 января 2022 года, № УП-60. <http://lex.uz//docs/5841063>.

5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni. - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2020 y., 23-sentyabr, 13-16-modda.



Internet saytlari.

1. <https://lex.uz>
2. <https://yuz.uz>
3. <https://uzpfiti.uz>
4. <https://piima.uz>
5. <https://t.me>

